



XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN O'TKAZILDI

1-2

XALQIMIZGA XOS MEHR, XAYR-SAXOVAT BAYRAMI

3

TABIATNI ASRASH – INSONIYATNI ASRASH DEMAK

4

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 29-may № 5 (1539)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



"INNOMET.UZ – 2024" XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASIDA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONCHILIK VA METALLURGIYA SANOATI XODIMLARI KUNI TANTANALI NISHONLANDI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA O'TKAZILDI

"INNOMET.UZ - 2024"

Joriy yil "O'zmetkombinat" AJ ishga tushganiga 80 yil to'ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida – 1944-yil 5-mart kuni Marten sexida birinchi o'zbek po'lati eritildi. Shu kun tarixda kombinatimizning ishga tushgan kuni sifatida qoldi.

Kombinat ishga tushgandan buyon o'tgan 80 yilda "O'zmetkombinat" AJ mamlakatimizning eng yirik sanoat korxonalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimiz erishgan yutuqlarda "O'zbekiston metallurgiya kombinati"ning alohida o'rni bor va u sanoatimiz taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda.

16- va 17-may kunlari Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJning 80 yillik yubileyi munosabati bilan "INNOMET.UZ – 2024" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiya davomida ishtirokchilarning kombinatni yanada rivojlantirish, kombinat oldida turgan ilmiy-texnik vazifalarga qaratilgan ko'plab qiziqarli ma'ruzalari tinglandi.

Anjumanni "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktor, metallurgiya yo'nalishida falsafa doktori (PhD)

Rashid Pirmatov kirish so'zi bilan ochib berdi.

Shundan so'ng Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Boshqaruv raisi – bosh direktor Abdulla Xursanov, Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori, kimyo fanlari doktori, professor Aziz Ibrohimov, Toshkent davlat texnika universiteti prorektori, texnika fanlari doktori, professor Sardor Donayev, Moskva po'lat va qotishmalar instituti (MISiS) Olmaliq filiali rahbariyati nomidan texnika fanlari nomzodi, dotsent Anna Alpatova va filial direktori o'rinbosari, texnika fanlari nomzodi Sulaymon Xudoyarov, G.I. Nosov nomidagi Magnitogorsk davlat texnika universiteti professori, ilmiy-innovatsion ishlar bo'yicha prorektor, texnika fanlari doktori Oleg Tulupov, Qozog'istondan Olmaota og'ir mashinasozlik zavodi bosh direktori Eset Duzeynov, o'zbek-yapon innovatsiya markazi jamoasi nomidan direktorning fan bo'yicha o'rinbosari, kimyo fanlari doktori Zuhra Qodirova va boshqalar tabrik uchun so'zga chiqdilar.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNGI SONDA

BAYRAM SHUKUHI

Sanoatimiz taraqqiyotida muhim o'rni bor 2

KELAJAGIMIZ

Bolalar – qalbimiz mevasi 5

EHTIROM

Keksalar e'tiborda va e'zozda 6-7

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

Qonun ustuvorligi ta'minlanmoqda 8

SO'RAGAN EDINGIZ

Dam olish kunlarida ishga chiqarish tartibi qanday? 9

SALOMATLIK

Chekish yoki sog'lom hayot – o'zing tanla! 10

SPORT

Vaziyatlar ko'p, biroq... 11

IBRAT

Dildan ketmaydigan chandiq 12

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA O'TKAZILDI



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Tadbirida "O'zmetkombinat" AJga "O'z DSt ISO 14001:2019" sertifikatlari berildi.

Konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov "O'zmetkombinat" AJ: tarixi, yutuqlari va istiqbollari" mavzusida ma'ruza qildi.

G.I.Nosov nomidagi Magnitogorsk davlat texnika universiteti professori, innovatsion ishlar bo'yicha prorektori, texnika fanlari doktori Oleg Tulupov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti silikatlar kimyosi va kimyoviy texnologiyasi laboratoriyasi mudiri, kimyo fanlari doktori, professor Zulayho Qodirova, OKMK AJda nodir metallar ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari haqida kombinat bosh muhandisining fan bo'yicha o'rinbosari, texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi professori Abdurashid Hasanov, onlayn shaklda Belarus milliy texnika universiteti "Qora va rangli qotishmalar metallurgiyasi" kafedrasini mudiri, texnika fanlari doktori, professor Bolislav Nemenyonok, "O'zmetkombinat" AJ vakillari ma'ruza uchun so'zga chiqdilar.

Ushbu konferensiyada ishtirokchilar metallurgiya sohasidagi innovatsiyalar, energiya resurslarini tejoychi texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, iqtisodiyot va moliyaviy

yechimlar kabi mavzularda taqdimotlar o'tkazdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ikkinchi kunida ishtirokchilar o'zlarining tashriflarini "O'zmetkombinat" AJ tarix muzeyidan boshlashdi.

Mehmonlar kombinatning qurilish tarixi, bosqichma-bosqich rivojlanishi va bugungi faoliyati bilan tanishdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari Elektrda po'lat eritish bo'linmasida bo'lishdi. Ular po'lat quyish jarayonini ko'zdan kechirishdi.

Ekskursiya yakunlangandan so'ng konferensiya ishtirokchilari "Metallurgiyadagi innovatsion texnologiyalar", "Energiya resurslarini tejoychi texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish" hamda "Metallurgiya ishlab chiqarishda raqamlashtirish, iqtisodiy yechimlar" sho'balarda metallurgiyaga oid mavzularda muhokamalar va taqdimotlar shaklida o'z ishini davom ettirishdi.

Ushbu anjumanda mahalliy va xorijlik olimlar, kombinat rahbar va mutaxassislari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Sheroz SHUKURALIYEV.



BAYRAM TADBIRI BO'LIB O'TDI

Metallurglar madaniyat saroyida 17-may kuni O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Bayram tadbirida "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov hamda O'zbekiston Respublikasi Konchilik

va metallurgiya sanoati faxriylar kengashining Bekobod hududiy filiali rahbari Ilhom Qurbonovlar so'zga chiqishdi. Ular metallurglarni kasb bayrami bilan tabriklab, o'zlarining ezgu va samimiy tilaklarini bildirdilar.

Samarali mehnat faoliyatlari, kombinatimiz ravnaqiga, erishilayotgan yutuqlarga qo'shayotgan



munosib hissalarini uchun bir guruh kombinat ishchi-xodimlari O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining "Faxriy yorlig'i" bilan taqdirlanishdi.

Shuningdek, sambo bo'yicha o'tkazilgan Osiyo va Okeaniya chempionatida 1-o'rinni egallab oltin medalni qo'lga kiritib, Osiyo chempioni bo'lgan Bekobod shahar sport maktabi tarbiyalanuvchisi

Islom Abduzokirov kombinat rahbariyati va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'a bilan taqdirlandi.

Tadbirida Bekobod shahar ixtisoslashtirilgan san'at maktabining orkestr jamoasi, Metallurglar madaniyat saroyining badiiy havaskorlari tomonidan ijro etilgan kuy va qo'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat baxsh etdi.

KIRIB KELAYOTGAN QURBON HAYITI MUBORAK BO'LSIN!

Diniy va milliy bayramlarimizdan biri bo'lgan Qurbon hayiti tobora yaqinlashib kelmoqda. Asrlar davomida xalqimizga xos mehr-oqibat, xayr-saxovat kabi ezgu umuminsoniy qadriyatlarni namoyon etib kelayotgan Qurbon hayiti jonajon Vatanimizda o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va shukronalik fazilatlarini yanada mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shmoqda.

Barchamizga ma'lumki, Qurbon hayiti Zulhijja oyining 10-kunida nishonlanadi. Bu kunda iqtisodiy mablag'i o'ziga yetarli bo'lgan insonlar Alloh taoloning bergan ne'matlariga shukronalik tariqasida chorva mollaridan qurbonlik qiladilar. Alloh taolo yo'lida qurbonlik qilib unga qurbat hosil qilish dinimiz buyurgan eng fazilatli amallardan hisoblanadi.

Qurbon hayiti bayramini munosib qarshilash uchun milliy, diniy qadriyatlarimizga amal qilsak, ko'cha-ko'ylarimizni, xonadon tashqarisini va ichkarilarini pokizalab, obodonlashtirish ishlarini boshlab yuborsak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Ba'zi joylarda hayit kunlari is-

rofgarchilikka sabab bo'ladigan turli marosimlar o'tkazish yomon an'anaga aylanib qolgan. Bu shariatimizda yo'q. Yaqinlari vafot etgan xonadonlardagi, nikoh to'ylari o'tgan oilalardagi "yangi hayit", "hayit yo'qlovi" kabi marosimlar bid'atdan boshqa narsa emas. Hayit kunidagi isrofgarchiliklar, xursandchilik bayramini aza va yig'i-sig'iga aylantirishlar musulmonlarga munosib emas. Unga ketadigan mablag'larni va ne'matlarni muhtojlarga, faqir-

miskinlarga, yetim-yesir, beva-bechoralarga tarqatishdan xayriroq ish bo'lmasa kerak!

Bu muborak kunlarda Alloh taoloning ko'plab xayru barakasi yer yuzidagi bandalari uzra yog'iladi.

Qurbon hayiti - musulmonlarning shod-xurramlik, ko'ngil olish, mehr-oqibat, xayr-saxovat ko'rsatish, bir-birlari bilan diydorlashuv bayramlaridir. Uni shariat talablariga muvofiq, yig'i-sig'isiz, xursandchilik bilan, hushkayfiyatda o'tkazish musulmonga yarashli va

maqtagan amallardandir.

Hayit kunlari yaqinlarimizni yo'qlab ularning holidan xabar olish, yoshi ulug'larni ziyorat qilish, muhtojlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, oilalarga xursandchilik ulashish va bayramning ko'rkiga ko'rk qo'shadigan amali solihlar bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bu kunda yanada mehribonroq, shafqatliroq bo'lar, yetim-yesirlar boshini silar, qariyalar, kasalmandlar, muhtojlardan xabar olar, ularning ko'ngillariga ham bayram shukuhini olib kirar edilar. Hayit kunlarini g'animat bilib, barcha gina-kuduratlarini unutib, kechirimli bo'lish musulmon kishiga xos bo'lgan go'zal fazilatlarandir.

Kirib kelayotgan Qurbon hayiti bayrami bilan barcha yurtdoshlarimiz qatorida metallurglarimizni ham qutlaymiz. Vatanimiz ravnaqi bundanda ziyoda, osmonimiz hamisha musaffo bo'lsin!

Kirib kelayotgan bayramimiz muborak bo'lsin, azizlar!

Abdusalom ABDULLAYEV.



BAYRAM SHUKUHI

METALLURGLAR TAQDIRLANISHDI

Kombinatning tarkibiy bo'linmalarida metallurglar kasb bayrami munosabati bilan tantanali tadbirlar tashkil etildi.

Ushbu tadbirlarda kombinat, bo'linmalar rahbarlari Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi bilan hamkorlikda metallurglarni kasb bayrami bilan tabriklab, ularga samimiy tilaklarini bildirdilar. Bu tadbirlarda uzoq yillik samarali mehnat faoliyati bilan kombinat ishlab chiqarishiga munosib hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh faol ishchi-xodimlar Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

BAYRAM OSHI BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni munosabati bilan "O'zmetkombinat" AJda ishchi-xodimlar uchun bayram oshi berildi.

Kombinat oshxonalarida 17-may kuni jami 1 tonna 300 kilogramm osh damlanib, korxonaning tarkibiy bo'linmalarida mehnat qilayotgan barcha metallurglarga tortiq qilindi. Ishchi-xodimlarga yaxshi kayfiyat ulashish maqsadida har bir oshxona bayramona bezatildi. Oshxona xodimlari milliyligimiz ramzi bo'lgan atlas, adrasdan liboslar kiyishib metallurglarga xizmat ko'rsatishdi.

ILG'OR TAJRIBA ALMASHISH MAYDONI

O'zbekistonda joriy yilning 2- va 3-may kunlari III Xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tdi. 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ortiq delegatni jamlagan forum global muloqot va investitsiyaviy sohadagi ilg'or tajriba almashish maydoniga aylandi.

Forum yakuniga ko'ra jami qiymati 26,6 milliard AQSh dollariga teng kelishuvlar imzolandi. Tadbir iqtisodiy rivojlanishning eng muhim jihatlari muhokama qilingan panel sessiyalar, muhokamalar, biznes nonushta va davra suhbatlari kabi boy dasturdan iborat bo'ldi.

O'zbekistonda qora metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi ishlab chiqaruvchi "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati III Toshkent xalqaro investitsiya forumida, shuningdek, xalqaro hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan bog'liq tadbirlar va uchrashuvlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

3-may kuni "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari - Moliya direktori Tatyana Budey



"Avesta Investment Group" tomonidan tashkil etilgan O'zbekistondagi kompaniyalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga bag'ishlangan panel muhokamasida so'zga chiqdi. Tadbirda 50 dan ortiq yuqori lavozimli rahbarlar, sarmoya kirituvchi menedjerlar va biznes egalari ishtirok etishdi.

Forum turli vazirliklar va viloyatlar uchun investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Imzolangan kelishuvlar sanoat, energetika, farmasevtika va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni rivojlantirishdan darak beradi.

Toshkentdagi III Xalqaro investitsiya forumi yakunlandi, biroq rejalashtirilgan tashabbuslar va imzolangan kelishuvlar barqaror rivojlanish va investitsiyalarni jalb etish yo'lida faol ish olib borishni va'da qilmoqda. O'zbekiston xalqaro maydondagi strategik hamkor sifatidagi rolini yana bir bor tasdiqlab, jahon sarmoyadorlari e'tiborini o'ziga qaratib, mintaqqa iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shmoqda.

BILIM VA MALAKALARI OSHIRILMOQDA

Mamlakatimizda turli sohalarda malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda sanoat korxonalarida ham malakali ishchi-mutaxassislarisiz taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishishni tasavvur qilib bo'lmay qoldi. "O'zmetkombinat" AJda ham yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj katta. Bu ehtiyojning asosiy qismi kombinatda bor kadrlarni o'qitib, bilimlarini, malakalarini oshirish orqali qoplanmoqda.

Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasida kasblar bo'yicha tizimli ravishda turli o'quv kurslari tashkil

etilayotganligi har tomonlama foydali bo'lmoqda.

Faqatgina joriy oyning o'zida bu maskanda kombinat xodimlari uchun "Sanoat xavfsizligi", "Boshqaruvning boshlang'ich ko'nikmalari" mavzusida malaka oshirish hamda yuk iluvchilar qayta tayyorlash kurslari tashkil etildi. Bu o'quv kurslari O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi "Kontexnazorat o'quv" DMning hamda kombinatning malakali mutaxassislari tomonidan yuqori saviyada olib borildi.

Xodimlar malakasini baholash,

o'qitish va rivojlantirish boshqarmasida kran mashinisti (ko'priqli va chorpoyali) kasbi bo'yicha tijorat o'quv kursi ham tashkil etildi. Kursni yaxshi tamomlagan tinglovchilarga malaka toifasini belgilovchi guvohnomalar berildi. Bu guvohnomaga ega bo'lganlar o'z sohasida istalgan korxonaga va tashkilotlarda faoliyat yuritishlari mumkin.

Mana shunday kurslarda qatnashayotganlar o'z malakalarini oshiribgina qolmay, yangicha ish uslublarini o'rganishmoqda, kasb egallashmoqda.

5-IYUN - BUTUNJAHON ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH KUNI

TABIATNI ASRASH - INSONIYATNI ASRASH DEMAK

XIX asr o'rtalaridan boshlab sanoat inqilobining sodir bo'lishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va aholi sonining keskin ortishi yer yuzida misli ko'rilmagan tabiiy o'zgarishlarga olib keldi. Yovvoyi tabiat katta talofat ko'rdi, ko'plab hayvon turlari qirilib ketdi, ulkan o'rmonlar va yashilliklar quruq dasht va sahrolarga aylandi. Yildan yilga iqlim yomonlashib borayotgan bugungi davrda katta sahnalarda tez-tez tabiatni asrash haqida jar solinmoqda. Aksar davlatlarda ekologiyani asrash davlat strategik ahamiyatga ega vazifaga aylandi. Butun dunyo insoniyatni "yashil iqtisodiyot"-ga o'tishga undamoqda.

Xususan, O'zbekistonda ham bu borada keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Bir necha yillardan beri mamlakatimizda "Yashil makon" loyihasi asosida atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirish, daraxt ekishga targ'ib qilib kelinmoqda. Birgina joriy yil bahorgi mavsumda butun respublikada 127 million tupdan ortiq daraxt ekilgan. Har bir viloyatga 8-10 million tup atrofida ko'chat o'tqazilgan.

parvarishlash va agrokimyoviy ishlov berish ishlari mas'ul xodimlar tomonidan nazorat qilib borilmoqda.

Bugungi har bir fuqaro ekayotgan daraxtlari bilan kelajak avlodlarimiz uchun xayrli va foydali ishlarni bajargan bo'ladi. Bizdan keyin keladigan avlod qanday yashashi, ularning jannatmakon diyorda yoxud suvsiz, daraxtsiz cho'lda yashashi aynan bugungi aholining say'-harakatiga ham bog'liq. Aynan, bizning bugun tabi-



Yashil makon umummilliy loyihasi doirasida "O'zmetkombinat" AJ hududlarida daraxtlar ekilib, bog'lar, gulzorlar barpo etilmoqda. Kombinatda faqatgina 2023-yil kuzgi daraxt ekish mavsumida jami 198 ming dona turli xil daraxt ko'chatlari ekildi. Ularning 103 410 donasi "Ekofond" elektron platformasiga kiritilgan edi. Bu yil bahorgi mavsumda esa jami 68 500 dona daraxt ko'chatlari ekilib, 46 500 donasi "Ekofond" elektron platformasiga kiritildi. Kombinat va unga tutash hududlarda ekilgan daraxtlarni o'z vaqtida sug'orish,

atni asrab-avaylashimiz, uni obod qilishimizning samarasini bizdan keyingi avlod his qiladi. Nafaqat tabiatimiz, balki kelajak avlod foydalanishi mumkin bo'lgan yer osti va yer usti tabiiy boyliklarimiz ham shular jumlasidandir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, kelajak avlodga tabiiy boyliklarini bus-butun yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ismat DIYOROV.



ENG YAXSHI YOSH MUHANDIS

"O'zmetkombinat" AJ yoshlari o'rtasida "Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha eng yaxshi yosh muhandis" kasb mahorat tanlovi bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar uch shart bo'yicha o'z kasb mahoratlarini sinovdan o'tkazdilar.

Birinchi shartda ular "Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi, birinchi yordam ko'rsatish" bo'yicha tanlab olingan 5 ta savolga javob berishdi. Ikkinchi bosqichda esa xodimning ish joyida mehnat sharoiti yaratilishiga qo'shgan hissasi suratli albom yoki videorolik ko'rinishda taqdimot qilindi.

Tanlovning so'nggi bosqichida "Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etilishi" bo'yicha targ'ibot ishlari yuzasidan ishtirokchilar tomonidan tayyorlangan videoroliklar va slaydlar namoyish etildi.

Hakamlar hayati tanlov ishtirokchilari tayyorgarliklarini baholab, g'olib va sovrindorlar

nomini aniqlab berishdi.

Tanlovda Qurilish-montaj bo'linmasining mehnat muhofazasi muhandisi Mirkomil Xolmatov g'olib chiqdi. 2-o'rin Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamentining mehnat muhofazasi bo'limi muhandisi Shahboz Eraliyevga va 3-o'rin Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamentining Sanoat xavfsizligi boshqarmasi muhandisi Hasanboy Toshmatovga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar bir martalik pul mukofoti sertifikatini hamda diplom bilan taqdirlandilar.

Bahodir RAHMONQULOV.



"SMART TEAM" CHEMPION

Kombinat Yoshlar yetakchilar Kengashi va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi hamkorligida kombinat ishchi-xodimlari o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat - 2024" intellektual musobaqasining final o'yini bo'lib o'tdi. Unda kombinat ishchi-xodimlaridan tuzilgan 10 dan ortiq jamoalar bahs olib borishdi. Murosasiz,

qiziqarli kechgan final o'yini dan so'ng g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalar nomi aniqlandi. Intellektual musobaqada "Smart team" jamoasi holib chiqdi. 2-o'rinni "Everest", 3-o'rinni "Muhandislar" jamoasi egalladi. G'oliblar kombinat tomonidan pul mukofotlari bilan taqdirlanishdi.

HUDUDDA BIRINCHI

Turin politexnika universitetida O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent hududiy bo'linma Kengashi tomonidan 7 may kuni tarmoq yoshlari uchun "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Bilimdonlar bahsida "O'z-kabel", "O'zavtolizing", "O'zagrolizing", Turin politexnika universiteti hamda kombinatimiz jamoasi ishtirok etdi.

O'yinda kombinatimiz zakovatchilari 1-o'rinni qo'lga kiritib, Respublika final o'yinida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritishdi.

VAKILLARIMIZ SOVRINDORLAR SAFIDA

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan tarmoq korxonalar tashkilotlari yoshlari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini Respublika final bosqichi o'tkazildi. 10-may kuni bo'lib o'tgan bilimdonlar bahsida Toshkent shahri va viloyatlardan ishtirok etgan 8 ta jamoa g'oliblik uchun o'z bilimlari bilan kuch sinashdilar.

Mantiqiy va qiziqarli savollardan iborat bo'lib o'tgan ushbu o'yinda jamoalar o'zlarining intellektual salohiyatlarini namoyish etishdi. O'yin yakunida 1-o'rinni andijonlik mashinasozlar egallashdi. 2-o'rin kombinatimiz zakovatchilari jamoasiga va 3-o'rin Turin politexnika jamoasiga nasib qildi. Ularga tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Akbar ALIYEV.

HAMMA DAVRLARNING HAM ENG BUYUGI

Xorazmning asl farzandi, ilm ahlining bobokoloni Abu Abdulloh (Abu Ja'far) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xiva shahrida 783-yilda dunyoga keldi. Xorazmda aniq fanlar – geometriya, tirigonometriya, astronomiya, topografiya, ximiya, minerologiya va tabiiy fanlar o'sha davridayoq yuksak darajada taraqqiy etgan. Xorazm keyinchalik arab xalifaligi tarkibiga kiritilgach, xorazmlik olimlar tez orada "arab fani" deb atalgan fanning yaratuvchilari orasida eng ilg'or o'rinni egallaganlar.

Muso al-Xorazmiy bolalik va o'smirlik yillarida boshlang'ich ta'limni vatanida olib, arab, fors, hind va yunon tillarini qunt bilan o'rgandi, bu tillardagi kitoblarni mutolaa qildi va el nazariga tushgan olim bo'lib yetishdi.

Bog'dod xalifaligi tomonidan 808-yilda Xuroson va Movarounnahrda yashovchi olimlar va shoirlar to'planib "Mari olimlari yig'ini"ni tashkil etiladi. Ko'pgina olimlar qatori al-Xorazmiy ham Marvga keladi va o'zining samarali ijodiga aynan shu yerda tamal toshini qo'yadi. Olim bu maskanda zamonasining ko'pgina olimu fuzolalari bilan tanishadi.

813-yilda Bag'dodda "Donishmandlik uyi" qayta tashkil qilinadi. Bu ilmiy markaz qoshida ulkan kutubxona mavjud bo'lib, unga xalifalikning hamma joyidan faqat arab tilidagi qo'lyozmalar emas, balki yunon, fors,



"Muso al-Xorazmiy faqatgina o'z vaqtining buyuk matematigi emas, balki butun insoniyat tarixidagi buyuk matematikdir".

J. Sarton (1884-1956), amerikalik mashhur ximik va ilm tarixi professori.

hind va boshqa tillarda yozilgan qo'lyozmalar ham keltiriladi edi.

Xalifa al-Ma'munning tirishqoqligi va olimlarning say'-harakatlari bilan ularni asosiy qismi arab tiliga tarjima qilindi va yirik rasadxona qurilishi boshlab yuborildi. Dunyoning turli burchaklariga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Xalifa al-Ma'mun bu ilmiy markazda va xalifalikdagi barcha fanlar rahbari qilib vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyni tayinladi.

Muhammad al-Xorazmiy matematika, astronomiya va geografiya fanlariga, ular orqali dunyo taraqqiyoti

rivojiga juda katta hissasini qo'shgan. Buyuk olim o'nlik pozitsion hisobni ifodalovchi, nol belgisi bor to'qqizta raqamni bayon etuvchi sanoq tizimiga asos solgan. Fan sifatida Algebrani yaratdi va unga shu nomni berdi.

Yevropa adabiyotida "Algoritm" deya nom olgan aniq va tushunarli qoidalar orqali ilmiy va ta'limiy asarlarning yangi usulini ishlab chiqdi va ularni yo'lga qo'ydi. Lotin tilida "algoritm" talaffuzi uning ismi – al-Xorazmiyga tenglashadi. Mazkur – algoritm tushunchasi butun zamonaviy raqamli axborot va kompyuter texnologiyalari tushunchasi asosini

tashkil qiladi. Aynan ushbu usul orqali Muhammad al-Xorazmiy asarlarining bayoni keng ommaga tarqalgan.

Uning matematika bo'yicha yaratgan asarlari lotin tiliga tarjima qilinib Ispaniya orqali g'arbgacha yetib borgan va 300 yildan so'ng g'arbliklarni hayratga solgan.

"BBC" telekanali boshlovchisi esa Al-Xorazmiyga bag'ishlangan hujjatli film yakunida: "Bugun biz qaerda va qachon bo'lishimizdan qat'iy nazar, kofe yoki choy ustida xohlagan kishimiz bilan internetda erkin muloqot qilganimizda yoki veb sahifalarni kuzatayotganda yoki chegaralanmagan hajmdagi axborotlarni saqlamoqchi bo'lganimizda, barcha yangi xay-tek texnologiyalarining rivojida o'chmas iz qoldirgan Markaziy Osiyoning deyarli tanish bo'lmagan chekkasidan bo'lgan Al-Xorazmiy ismli kishi turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak va xayolan undan minnatdor bo'lishimiz shart" deya xulosa qiladi. Buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiy 850-yilda o'z ijod maskani bo'lmish Bag'dod shahrida olamdan o'tgan.

Uning ilmiy asarlari yunon, lotin, nemis, ingliz, golland, rus va boshqa tillarga qayta-qayta tarjima qilingan.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. U o'z asarlari, ixtirolari bilan o'z vatani butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

Olimjon AZIMOV.

1-IYUN - XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI



BOLALAR - QALBIMIZ MEVASI

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni butun dunyo bolalari uchun eng beg'ubor va quvonchli bayram hisoblanadi. Albatta, bola bu dunyo, hayot, millat davomchisi. Bolalar o'z tabassumlari orqali insonlar qalbida hayotga, yashashga bo'lgan qiziqishni uyg'otadilar. Ko'zlarida ezgulik va mehr qalqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldirg'och misolidir.

Barcha joylarda bo'lgani kabi kombinatimizda ham bolalar salomatligini mustahkamlash, ularning eng go'zal damlari shodlikka, xursandchilikka to'la o'tishi uchun harakat qilinyapti. Bu borada ish beruvchi hamda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining birdamligi qo'kelmoqda.

Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan metallurglar va ularning oila a'zolariga ham mazmunli dam olishlari, sog'liklarini mus-

tahkamlashlari uchun bir qator qulayliklar muhayyo etilmoqda. Jumladan kombinat ishchi-xodimlari farzandlarining dam olish kunlari Toshkent shahridagi O'zbekiston milliy qo'g'irchoq teatrining spektakllarini tomosha qilishlari tashkil etilmoqda.

Shahrimizdagi sanatoriy-profilaktoriyda ishchi-xodimlar bilan birga ularning farzandlarining salomatliklarini ham mustahkamlash yo'lga qo'yilgan. Bu yerga kombinat xodimlarining 14 yoshgacha bo'lgan farzandlari uchun bepul "kursovka" beriladi.

Bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz egalaridir. Ularni asrab-avaylash, salomatliklarini tiklash va har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish har bir ota-ona kabi, davlatimiz, qolaversa barchamizning muqaddas burchimizdir.

Izzat TOSHMATOV.

OSHIG'I BILAN BAJARILDI

Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasiga qarashli Yuqori omli koks ishlab chiqarish uchastkamiz ikki yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bu uchastkada joriy yilda 13 100 tonna yuqori omli koks mahsuloti ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Jamoamiz oldiga qo'yilgan rejalarni ortig'i bilan bajarib kelyapti. Joriy yilning 5 oyi mobaynida uchastkamizda 5 400 tonna mahsulot ishlab chiqarilish rejasi belgilangan edi. Amalda uchastkamiz belgilangan rejani may oyi tugamasdan oshig'i bilan bajardi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot asosan Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasiga uzluksiz yetkazib berilmoqda. Mana shunday yuqori ko'rsatkichlarga erishishimizda jamoamizda mehnat qilayotgan barcha ishchi-xodimlarning munosib hissalar bor.

Alisher RAHIMOV, uchastka katta ustasi.

KO'HNA SHAHARGA SAYOHAT

Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan kombinat ishchi-xodimlarining dam olish kunlarini maroqli o'tkazish uchun bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda. Ayniqsa, metallurglar yurtimizning qadimiy va ko'hna shaharlariga uyushtirilgan sayohatlardan juda mamnundirlar.

4-5 - may kunlari Klining xizmati hamda 15-16 mayda Navli prokatlash bo'linmasi jamoalarining Samarqand shahriga sayohati tashkil etildi. Ikki kunlik sayohat davomida ishchi-xodimlar "ochiq osmon osti muzeyi" deb nom olgan ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharning tarixiy obidalari, serjilo me'moriy manzaralari bilan yaqindan tanishdilar. Mazkur sayohatlardan katta taassurotlar olib kelganlar uni tashkil qilgan birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasidan minnatdor bo'lishdi.

KEKSALAR E'TIBORDA VA E'ZOZDA

Keksalarga izzat-ikrom ko'rsatish xalqimizga xos ezgu qadriyatlaridan biridir. Ulug' maqsadlar yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni ularning maslahati va duolari bilan boshlaymiz, nuroniy- larimizning boy hayotiy tajribalariga tayanamiz. Ularni qadrlash, hurmat-e'ti-

bor ko'rsatib, e'zozlash har birimizning burchimizga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining tashkil etilganligi ham keksalari- mizga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom hamda g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Ushbu Kengash tomonidan metallurgiya sanoati faxriylariga doimiy g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatilmoqda. Ularning sog'ligini tiklash hamda jamiyat hayotida faol qatnashib, ijtimoiy faolligini oshirish yo'lida qator tadbirlar tashkil etilmoqda.



Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod hududiy filiali "O'zmetkombinat" AJ mehnat faxriylari uchun ko'plab turli tadbirlar tashkil etib kelmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni va kombinatning 80 yilligiga bag'ishlab tashkil etildi.

"Baxt uyi"da bo'lib o'tgan ushbu tadbirda kombinatda ko'p yillar davomida fidokorona ishlagan mehnat faxriylari taklif etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashi raisi Aleksandr Farmonov, kombinat boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov, Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, Faxriylar kengashi Bekobod shahar hududiy filiali boshlig'i Ilhom Qurbonovlar yig'ilganlarni tabriklab, ularga samimiy tilaklarini bildirdi. Shuningdek, tadbirda mehnat faxriylari Qo'ysinmurod Olimov va Mirzajon Rahimovga Respublika Konchilik

va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tomonidan "Faol faxriy" ko'krak nishoni va bir martalik pul mukofoti topshirildi.

Tadbir davomida Metallurglar madaniyat saroyi xonandalari o'zlarining qo'shiqlari va jozibador raqslari bilan yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashdi.

Furqat HOLIQULOV.



TALABALARGA USTOZLIK QILISHMOQDA

Konchilik va metallurgiya sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish, shuningdek, sohada bardavom vorislikni ta'minlovchi samarali ustozshogird tizimini yo'lga qo'yishda ham kombinatimizning mehnat faxriylari o'zlarining munosib ulushlarini qo'shib kelishmoqda.

Ma'lumki "O'zmetkombinat" AJ va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik aloqalari yildan yilga kengayib bormoqda.

Kengashimiz tashabbusi bilan soha pensionerlari va faxriylarining boy kasbiy tajriba va ko'nikmalaridan unumli foydalanilgan holda Moskva Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq shahridagi filialida hamda Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filiali va sohaga oid boshqa ta'lim muassasalarida muntazam asosda ma'ruzalar tashkil etilyapti. Faxriylar mehnat faoliyatini endi boshlagan yosh metallurglarga o'z tajribasini o'rgatib kelmoqdalar. Shuningdek, faxriylarimiz talabalarni kombinatimiz ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishtirmoqdalar.

O'ZARO FIKR ALMASHILDI

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tashabbusi bilan bir guruh kombinat mehnat faxriylarining Toshkent davlat texnika universiteti va Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq filiallariga tashrifi tashkil etildi.

Tashrif davomida mehnat faxriylari Isroil Nazarov, Mamurjon Madmarov, Almira Petrova, Edem Abyazizov

o'quv maskanlarining "Metallurgiya" kafedrasida metallurgiya yo'nalishi talabalari uchun dars mashg'ulotlarini o'tkazdilar. Sohada katta tajribaga ega bo'lgan mehnat faxriylari po'lat eritish, prokat ishlab chiqarish, rangli metallar va ferrotishmalar mavzulari bo'yicha hamda metallurgiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, zamonaviy texnologiyalar, kombinatda olib borilayotgan investitsion loyihalar haqida talabalarga so'zlab berishdi.

Shu bilan birga metallurgiya sanoatidagi mavjud muammolar, ularning turli xil ilmiy yechimlari haqida faxriylar va talabalar o'zaro fikrlar almashdilar.

ILM AHLI TASHRIFI

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali va Moskva Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq filialining o'qituvchi va talabalari ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish maqsadida yaqinda kombinatga tashrif buyurishdi.

Tashrif avvalida mehmonlar kombinat tarixi muzeyida bo'lishib kombinatning bunyod bo'lishidan tortib hozirgi kungacha bo'lgan faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Shundan so'ng o'qituvchi va talabalar Ferrotishmalar ishlab chiqarish, Elektrda po'lat eritish hamda Navli prokatlash bo'linmalarida bo'lishib po'lat eritishdan tayyor prokat mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlar bilan tanishdilar.

G'AMXO'RLIK

Ikkinchi jahon urushida bobolarimiz jahonni fashizmdan asrab qolishda o'zlarining jonlaridan, sog'liklaridan voz kechib, bugungi baxtli turmushimizni ta'minlashga juda katta hissalarini qo'shganlar. Shu davrda front ortida mehnat qilganlar ham Buyuk g'alabani yaqinlashtirishga munosib hissalarini qo'shganlar.

Ko'p yillar kombinatimizda ishlab, hozirda pensiyada bo'lgan mehnat fronti qatnashchilari bo'lgan Mirzabek Normatov, Amina Kamalova, Klavdiya Soy kabilar nafaqat oilasi, balki metallurglar, bekobodliklar va mamlakatimiz ardog'idadir. Ularga Xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan kombinat tomonidan pul mukofotlari topshirildi. Bunday g'amxo'rlik va e'tibordan xursand bo'lgan nuroniy- larimiz metallurglarga minnatdorlik bildirishdi.

O'Z KASBINING A'LOCHISI

E'TIBOR HAM, E'TIROF HAM TOPDI



Kishi qaysi kasb egasi bo'lmasin, astoydil ishlasa, izlansa, fidoyi mehnat qilsa, albatta, e'tibor ham, e'tirof ham topadi. Rahmatullo Marupov hayotini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Shahrimizdagi e'zozdagi faxriylardan biri 1949-yilda tavallud topgan. 1966-yilda Bekobod shahridagi 9-umumiy ta'lim maktabini tugallagan. Harbiy xizmatdan so'ng 1970-yildan boshlab Bekobod shahar umumiy ovqatlanish trestida turli vazifalarda faoliyat ko'rsatgan.

Rahmatullo Marupovning taklifi bilan O'zbekiston metallurgiya kombinatida 1988-yilning dekabrda umumiy ovqatlanish kombina-

ti tashkil topdi. Shundan so'ng u deyarli 30 yil bu umumiy ovqatlanish kombinatiga rahbarlik qiladi. Shu vaqt mobaynida soha rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Sohani rivojlantirish, metallurglarga malakali xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'plab tashabbuslari bois elga tanildi, tilga tushdi, e'tirof etildi.

Yangi tashkil etilgan umumiy ovqatlanish kombinatida o'n ikki mingdan ortiq ishchi va xizmatchilarning ovqatlanishini yo'lga qo'yish oson bo'lmadi. Buning uchun kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash, malaka va uquviga qarab joy-joyiga qo'yish, oshxonalarini qayta jihozlash talab etilar edi. Bu tashkiliy ishlar ham tez orada muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Zavodda oshxonalar soni 17 tadan 54 taga ko'paydi. Ikki ming boshga mo'ljallangan yordamchi chorvachilik kompleksida yangi go'shtni qayta ishlash sexi, kichik non ishlab chiqarish korxonasi qurilib, ishga tushirildi.

Mamlakatimizning eng so'lim go'shalaridan biri - viloyatimizning Bo'stonliq tumanida joylashgan yil davomida faoliyat ko'rsatadigan "O'zmetkombinat" AJ ning 360 o'rinli "Yoshlik" bolalar dam olish oromgohi umumiy ovqatlanish kom-

binati tomonidan oziq-ovqat bilan ta'minlanishi ibratli tashkil etildi. Natijada Respublika bo'yicha ham bu soha vakillari oromgohga kelib ularning tajribasini o'rganib ketardilar.

Bularning hammasi R. Marupovning qobiliyatli, tinib-tinchimasligi, qat'iyatli rahbar bo'lganidan darakdir.

O'zbekiston metallurgiya kombinati mehnatkashlarining ijtimoiy soha yo'nalishida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganligi davlatimiz tomonidan yuksak qadrlangan. U "Mehnatda o'rnak ko'rsatgani uchun" medali bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasi Savdo Vazirligining "Savdo xizmati a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovar bo'lgan. Yaqinda Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati fax-

riylar kengashi tomonidan "Faol faxriy" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

U ko'plab shogirdlar yetishtirdi, tajribasi, mehnati bilan hurmat va izzat topdi. Umr yo'ldoshi Ortiqjon opa bilan ikki nafar el-yurt xizmatiga kamarbasta farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi.

Rahmatullo Marupov 75 yoshga to'ldi. Uni hayotining yana bir yorqin sahifasi - tavallud topgan kunining 75 yilligi bilan tabriklaymiz.

Unga uzoq umr, baxt-saodat, tinchlik va xotirjamlik tilab, yaqinlaringiz, shogirdlaringiz baxtiga doimo sog' va omon bo'ling, deymiz.

**O'zbekiston Respublikasi
Konchilik va metallurgiya
sanoati faxriylar Kengashining
Bekobod hududiy filiali.**

**"SAYOHATDAN XURSANDMIZ"**

Kombinatda ko'p yillar samarali mehnat qilgan bir guruh kombinat mehnat faxriylari uchun 18 va 19-aprel kunlari Samarqand shahriga sayohat tashkil etildi. Ikki kunlik sayohat davomida faxriy metallurglar ushbu qadimiy shaharning tarixiy obidalarini va qadamjolarini katta qiziqish bilan tomosha qilishib, unutilmas yorqin taassurotlarga ega bo'lishdi.

- Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar hududiy filialiga katta rahmat, - deyishdi mehnat faxriylari. - Ular bizga bu unutilmas sayohatni tashkil etib berishdi. Hammasi ajoyib bo'ldi. Samarqand shahri ham, mehmonxonalarini ham, ovqatlari ham zo'r bo'ldi.

Mazkur sayohatda faxriylar tadbir davomida ulug' ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan noyob me'moriy yodgorliklar, maqbaralarini asrab-avaylash, obod etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Keksalik gashtini surayotgan ota va onaxonlarimiz bu e'tibor va sayohatdan juda xursand.

"BAXTIYOR BUVIJONLAR"

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Bekobod hududiy filiali tomonidan tashkil etilgan "Baxtiyor buvijonlar" folklor ansamblining muxlislari tobora oshib bormoqda. Yaqinda "Metallurglar" madaniyat saroyida bu folklor ansamblining konserti bo'lib o'tdi. Konsertda ansambl ijodkorlari milliy kuy va qo'shiqlarni mohirona ijro etishib, tashrif buyurganlarga bir olam quvonch baxshida etdilar.

Tadbir davomida Bekobod shahar hokimi maslahatchisi Ulug'bek Abdunazarov "Baxtiyor buvijonlar" ansambli jamoasining kelgusidagi ijodiy faoliyatlariga omadlar tilagan holda, o'zining samimiy tilaklarini bildirdi. Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod hududiy filiali tomonidan ansambl ishtirokchilariga tashakkurnoma va esdalik sovg'alar topshirildi.

GIMNASTRADA G'OLIBLARI

Vazirlik, idora va tashkilotlar xodimalari, ularning oila a'zolari o'rtasida 15-may - Xalqaro oila kuniga bag'ishlab "Sport - nafislik va go'zallik manbai" shiori ostida gimnasturada sport festivali bo'lib o'tdi. Ushbu sport musobaqasida yurtimizning barcha hududlaridan 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan sportchi xotin-qizlar g'oliblik uchun o'zaro bellashdilar.

Musobaqada Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod shahar hududiy filialining "Buvijonlar" gimnasturada jamoasi ham tayyorlagan dasturi bilan munosib ishtirok etib birinchi o'rinni egalladi.

**SOG'LOM TURMUSH
TARZI UCHUN**

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bayramiga bag'ishlab, kombinat mehnat faxriylari o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod hududiy filiali tashabbusi bilan o'tkazilgan musobaqa qiziqarli o'tdi. Ko'tarinki kayfiyatda, qizg'in va do'stona ruhda o'tgan bahslar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Musobaqada g'olib va sovrindor bo'lgan faxriylar Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Bu kabi sport tadbirlari faxriylarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan birga yoshlarimizning sportga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshirishi shubhasiz.

SHAFFOF TIZIM VA SOG'LOM ISH MUHITI YARATILMOQDA

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, turli jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, "O'zmetkombinat" AJda Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti hamda Komplaens xizmati bu boradagi ishlarning barqarorligini ta'minlash vazifasini bajarimoqda.

QONUN USTUVORLIGI TA'MINLANMOQDA

Jumladan, Komplaens xizmati tomonidan korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari mavjud bo'lib, ushbu aloqa kanallari orqali 2023-yil davomida 14 ta murojaat kelib tushgan. Barcha murojaatlar tegishli tarkibiy bo'linmalarni jalb qilgan holda ko'rib chiqilib, murojaat qilganlarga yozma va og'zaki ravishda javoblar berildi. 2024-yilda esa manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha 9 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ushbu murojaatlarga ham belgilangan tartibda javoblar berib borilgan.

Kombinat tarkibiy va hududiy bo'linmalari ishchi-xodimlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berishlarini yengillashtirish maqsadida Telegram messengerida "UMK_Anticorbot" ishga tushirildi.

Bundan tashqari, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti mas'ul xodimlari tomonidan 2024-yil 1-choragi

davomida, kombinat xodimlari tomonidan sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatlar yuzasidan kelib tushgan ma'lumotlar asosida jami 93 ta xizmat tekshiruvlari va o'rganishlar o'tkazilgan bo'lib, uning natijasiga ko'ra:

- 8 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan;
- 36 nafar xodimga nisbatan hayfsan e'lon qilingan;



- 68 nafar xodim o'rtacha oylik ish haqidan jarimaga tortilgan;
- 18 nafar xodimga ogohlantirish e'lon qilingan;
- shuningdek, 47 ta ish materiallari kombinat ishchi-xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga huquqiy baho berishlik uchun yuborilgan bo'lib, 4 ta holat bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan.

Ushbu qo'zg'atilgan jinoiy ishlarning 3 ta holati kombinat mol-mulkini talon-taroj qilish va 1 tasi hujjatlarni qalbakilashtirish holati bo'yicha qo'zg'atilgan.

Bugungi kunda "O'zmetkombinat" AJda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish orqali nafaqat korxonada shaffof tizim va sog'lom ish muhiti yaratilmoqda, balki bu turli illatlaridan holi sog'lom fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ham xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tomonidan 2023-yil yakuni asosida shakllantirilgan "Ochiqlik Indeksi" reytingida "O'zmetkombinat" AJ qizil toifadan yashil toifaga o'tishi ta'minlandi, shuningdek, "Davlat idoralarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligi reytingi"da kombinat birinchi marta ishtirok etganligiga qaramasdan ko'k, ya'ni qoniqarli toifadan o'rin egallashiga erishildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA,
"O'zmetkombinat" AJ
Matbuot xizmati boshlig'i.

SAYYOR SUD MAJLISIDA

TEXNIKA XAVFSIZLIGIGA E'TIBORSIZLIK OQIBATI



2024-yilning 18-aprel kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida "O'zmetkombinat" AJning Navli prokatlash bo'linmasida (NPB) ro'y bergan baxtsiz hodisa bo'yicha jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqdik.

Joriy yilning 5-yanvar kuni NPBda ta'mirlash ishlarida Metallurgiya uskunalarini ta'mirlash bo'linmasi (MUTB) ishchisi Shuhrat Asabayev jarohat oladi. U bo'linmaning "300-stani" ostida joylashgan sovutish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan o'tish yo'lagida mexanizmlarni almashtirish ishlarida qatnashayotgan edi. Payvandlash ishlarini olib borayotgan Sh. Asabayev oyoqlari ostida bo'lgan panjara-li listning bir qismi joyidan ko'chib ketishi oqibatida 4 metr balandlikdan betondan ishlangan ariqqa yiqilib tushadi.

Sh.Asabayev olgan tan jarohatlari hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir tan jarohati sifatida baholanishligi haqida sudga oid tibbiy ekspertiza xulosa bergan.

Bu ish bo'yicha NPBda Mexanik uskunalarini ta'mirlash bo'yicha

usta Rustam Teshabayev hamda MUTBning 4-ta'mirlash uchastkasi ustasi Asatulla Badalovga Respublika JKning 257-moddasi 1-qismi bilan ayblov e'lon qilingan.

Sudlanuvchi R.Teshabayev texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul shaxs hisoblangan. U ish boshlashdan oldin va ish smenasi davomida jinoiy beparvolik bilan "300-stan" ostida joylashgan sovutish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan o'tish yo'lagi soz holatda ekanligini tekshirmagan.

Sudlanuvchi A.Badalov ish bajaruvchi sifatida bevosita qo'l ostidagi xodimlar uchun ta'mirlash ishlari xavfsiz tashkil etilishini, ish joylarini xavfsiz holatda bo'lishining ta'minlanishiga javobgar bo'lsada, jinoiy beparvolikka yo'l qo'ygan. U "300-stan" ostida joylashgan sovutish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan o'tish yo'lagining sozligini tekshirmagan hamda sozligi yoki nosozligi yuzasidan hujjat bor, yo'qligiga aniqlik kiritmasdan ta'mirlash ishlarini boshlagan.

Sud majlisida jabrlanuvchi Sh. Asabayev yarashuv to'g'risidagi arizasi bilan murojaat qilib, R.Teshabayev va A.Badalovga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligini bildirdi. U sudlanuvchilar bilan yarashib olganini, yetkazilgan zarar to'liq qoplanganini aytib, jinoyat ishini tugatishni so'radi.



Sud majlisida R.Teshabayev va A.Badalov yarashuv to'g'risida arizani quvvatlab, aybiga o'z ixtiyorlari bilan to'liq iqrar ekanliklarini, qilmishlaridan pushaymonligini, sodir etgan qilmishlarining oqibatlarini anglaganliklarini ma'lum qilishdi.

Sud, jabrlanuvchi Sh.Asabayevning yarashuv haqidagi arizasini muhokama qilib, taraflarning arizani qanoatlantirish haqidagi fikrlarini tinglab, taraflar yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqida ajrim qildi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 257-moddasi 1-qismi bilan R.Teshabayev va A.Badalovga nisbatan to'plangan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddasiga asosan taraflar yarashganligi munosabati bilan tugatildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonalarda ishchi va xiz-

matchilarning xavfsizligini ta'minlash, ularni xavfsiz ishlash usullariga o'rgatish uchun mas'ullar o'z vazifalariga vijdonan yondoshganida bu baxtsiz hodisaning oldini olish mumkin edi.

O'z navbatida ishchi va xizmatchilar zimmasiga mehnat muhofazasi qoidalariga, mashina va uskunalarida ishlash talablariga rioya qilish va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish yuklatilgan. Buning uchun ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatadigan har bir ishchi va xodim o'ziga birlashtirilgan ishini xavfsiz bajarishi uchun chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Ana shunda ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar, jarohatlar olish kamaygan bo'lar edi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sud'yasi.

DAM OLISH KUNLARIDA ISHGA CHIQRARISH TARTIBI QANDAY?

Dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarida ish beruvchilar xodimlarni ishga chiqarishni qanday tartibda amalga oshiradilar?

A. Toirova.

Mehnat kodeksining 209-moddasiga asosan dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayram kunlarida ishlash taqiqlanadi. Bundan ushbu moddada nazarda tutilgan quyidagi hollar mustasno. Umuman tashkilotning yoki uning alohida tarkibiy bo'linmalarining, yakka tartibdagi tadbirkorning keyinchalik normal ishlashi oldindan kutilmagan qaysi ishlarining shoshilinch bajarilishiga bog'liq bo'lsa, o'sha ishlarni bajarish zarur bo'lgan taqdirda xodimlarni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishga jalb etish ularning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi. Ya'ni ish beruvchi har qanday vaziyatda bayram kunlari xodimni ishga jalb qilmoqchi bo'lsa, uning yozma roziligini olishi shart. Ishlanmaydigan bayram



kunlarida ishlab chiqarish-texnik sharoitlarga ko'ra (uzluksiz ishlaydigan tashkilotlar) to'xtatib turish imkoni bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni), aholiga xizmat ko'rsatish zarurati yuzaga keltiradigan ishlarni, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan ta'mirlash va yuk ortish-tushirish ishlarini amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat kodeksining 396-moddasiga asosan homilador ayollar, o'n to'rt yoshga to'lmagan

bolaning (o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning) ota-onasidan biri (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxs) faqat o'z yozma roziligi bilan dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilinishi mumkin. Bunda ish beruvchi mazkur xodimlarni dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlardan voz kechish borasidagi huquqi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Mehnat kodeksining 417-moddasiga asosan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarni dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi. Mehnat kodeksining 428-moddasiga asosan nogironligi bo'lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

DARAXT KESGANLIK UCHUN QANCHA JARIMA TO'LANADI?

Mamlakatimizda daraxtlarni kesish yoki shikast yetkazganlik uchun qanday jazo choralari belgilangan?

Q. Ashurov.



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (MjTK)ning o'zgartirish kiritilgan 79-moddasiga ko'ra, daraxtlar, butalar, boshqa o'simliklar va nihollar qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo'q qilish yoki boshqa joyga ko'chirib o'tkazgan fuqarolar uchun jazo choralari kuchaytirilgan. Mana shunday ish uchun BHMning 25 baravaridan 50 baravarigacha - 8 million 500 ming so'mdan 17 million so'mgacha, mansabdor shaxslar esa bazaviy hisoblash miqdori (BHM) ning 50 baravaridan 75 baravarigacha,

ya'ni 17 million so'mdan 25 million 500 ming so'mgacha jarimaga tortiladi.

Shu bilan birga, xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa, ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashyo yoki ma'muriy huquqbuzarlikning bevosita ashyosi musodara qilinadi. Shundan so'ng fuqarolarga BHMning 50 baravaridan 75 baravarigacha, ya'ni 17 million so'mdan 25 million 500 ming so'mgacha, mansabdor shaxslarga esa BHMning 75 baravaridan 100 baravarigacha, ya'ni 25 million 500 ming so'mdan 34 million so'mgacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, MjTKning 79-moddasi to'rtinchi qism bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga, kundakov qilishga, shikastlantirishga yoki yo'q qilishga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqqan mansabdorlar BHMning 50 baravaridan 75 baravarigacha, ya'ni 17 million so'mdan 25 million 500 ming so'mgacha jarimaga tortiladi.

HAQORAT UCHUN JAZO BORMI?

Insonlarni haqorat qilish yomon illatlardan hisoblanadi. Ko'chakuydami, ishxonada yoki ijtimoiy tarmoqlar orqalimi boshqalarning qadr-qimmatini kamsitish, haqorat qilish uchun qonunchilikda jazolash choralari belgilanganmi?

D. O'ktamov.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasiga ko'ra haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravari (13 million 600 ming so'm)gacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. E'tibor bering! Jinoyat kodeksining 140-moddasi 2-qismiga binoan nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan omma-



Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.



MENGA VAQTINCHA MEHNATGA QOBILIYATSIZLIK NAFAQASI 100 FOIZ TO'LANADIMI?

Men kombinatda ishlayman. Yaqinda dekretidan qaytdim. 6 oylik chaqalog'im bor. 10 kunlik "bolnichiy"ga chiqqandim. 2 yoshgacha bolasi bor xodimlarga "bolnichiy" oylikka teng holda to'lanadi, deb eshitgandim. Shu rostmi?

S. Alimova.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 1136-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasi asos bo'ladi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'iy nazar ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to'lanadi:

- ishlayotgan 1941 - 1945-yillardagi urush qatnashchilariga;
- baynalminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;

- qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;

- Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish

zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;

- mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan xodimlarga.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi 100 foiz to'lanadigan xodimlar ro'yxatida ikki yoshgacha to'lmagan farzandi borlar yo'q. Agar 16 yoshgacha to'lmagan 3 yoki undan ortiq farzandlaringiz bo'ladigan bo'lsa, 100 foiz to'lanadi.

Qolgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

- a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin yetimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;

- b) umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga ish haqining 60 foizi miqdorida.

CHEKISH YOKI SOG'LOM HAYOT – O'ZING TANLA!

Hammamizga ma'lumki tamaki nafaqat nafas yo'llari va a'zolari kasalliklarini, balki yurak-tomir tizimi kasalliklarini ham keltirib chiqaradi. Tamaki iste'mol qilish yurak ishemik kasalligi, insult va periferik tomirlar kasalliklari rivojlanishining eng xavfli omillaridan biridir.

Dunyo bo'yicha yurak-tomir tizimi kasalliklari tufayli boshqa har qanday sabablardan ko'ra ko'proq odamlar vafot etmoqda. Tamaki iste'mol qilish va tamaki ikkilamchi tutunining ta'siri esa yurak-tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi arterial gipertoniya dan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi xavfli omil hisoblanadi.

Shuningdek, olimlarning qayd etishicha, chekish ta'siri ostida organizmda 25 dan ortiq kasalliklar rivojlanishi kuchayadi. Xususan, o'pka saratoni va miokard infarktining chekish bilan bog'liqligi haqida ilmiy dalillar mavjud.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) e'lon qilgan hisobotga ko'ra, tamaki mahsulotlari



iste'moli yiliga 8 million kishining o'limiga sabab bo'lmoqda. Xavotirli jihati, ko'rsatkichlar yil sayin oshib boryapti. Yoshlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasida bu illatga berilib ketganlarning ko'payishi yanada tashvishli holat.

Tamakining zaharli tutunidan umri zavol topayotganlarning 12 foizi bunday mahsulotlarni iste'mol qilmaydigan kishilar, ya'ni passiv chekuvchilardir. Ular orasida, taassufki, bolalar ham bor.

Tamaki iste'moli sog'liqni saqlash va faoliyat samaradorligining pasayishini inobatga olganda, milliy iqtisodiyot uchun qimmatga tushadi. U sog'liqni saqlash sohasidagi tengsizlikni chuqurlashtiradi va qashshoqlik muammosini yanada kuchaytiradi, chunki kam ta'minlangan kishilar eng asosiysi – oziq-ovqat mahsulotlari, ta'lim va sog'liqni saqlash uchun kamroq mablag' sarflashadi. Tamaki iste'moli natijasida erta o'lim holatlarining 80 foizi past va o'rta darajali daromad oluvchi mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda 120 dan ortiq davlat tasarrufidagi 3 million gektardan ziyod maydonda tamaki yetishtirilyapti. O'z navbatida, dunyoda 300 milliondan ko'proq odam oziq-ovqat taqchilligi muammosiga yechim izlash bilan ovora. Agar bu yerlarda tamaki o'rniga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilganda insonlarning ochlik muammoasi bartaraf etilgan bo'lar edi. Afsus...

Mirzaburxon DO'SMURODOV,
shifokor.



14-IYUN – BUTUNJAHON DONORLIK KUNI

QON TOPSHIR, HAYOTNI SAQLA

Har yili 14-iyun – Butunjahon donორlari kuni sifatida nishonlanadi. Ma'lumki, har kuni dunyo bo'yicha minglab insonlar donoriga ehtiyoj sezadi. Donorlik – odamlarga yaxshilik qilishning eng oddiy ko'rinishi bo'lib, ushbu beg'araz, ko'ngilli yordam qonga ehtiyoji bor insonlar uchun haqiqiy ko'makdir.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, barcha davlatlarda qonga bo'lgan ehtiyojni to'liq ta'minlash uchun har 1000 kishiga 40-60 nafardan donor to'g'ri kelishi lozim. Mamlakatimizda esa bu ko'rsatkich hozircha 10 nafarga ham yetmaydi. Aynan shu bois bugun mamlakatimizda beg'araz donორlar safini kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarning izchilligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hayoti xavf ostida qolgan og'ir bemorlarning hayotini saqlab qolish uchun qon va qon mahsulotlariga ehtiyoj juda katta. Avariya, tabiiy ofat va baxtsiz hodisalar oqibatida jarohatlanganlarga samarali yordam ko'rsatishda, shuningdek, qon donorligi homiladorlik va tug'ish natijasida qon ketishini boshdan kechirgan ayollarga, bezgak va to'yib ovqatlanmaslik natijasida og'ir anemiya bilan og'irigan bolalarga, qon va suyak iligi kasalliklari, gemoglobin sin-

tezi va immunitet tanqisligi bilan og'irigan bemorlar, murakkab tibbiy va jarrohlik muolajalarni boshdan kechirayotganlarga qon va qon mahsulotlari juda muhim manbadir.

Qon berish inson salomatligi uchun foydali amaliyot sanaladi. Donor qon topshirar ekan, kimningdir hayotini saqlabgina qolmay, o'z sog'ligini saqlashga ham erishadi. Ya'ni donorlik gipertoniya xastaligining oldini olish va davolash, organizmda moddalar almashinuvini yaxshilash hamda immun tizimini mustahkamlashga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qadrli metallurglar!

Qon topshirish insonning insonga hadya etgan eng oliy darajadagi sovg'asidir. Hayot hadya etish – savob ishning eng oliy ifodasi ham sanaladi. Shunday ekan, savob ishni amalga oshirishga kechikmaylik!

Sohiba ABDURASHIDOVA,
Bekobod shahar tibbiyot birlashmasining qon quyish bo'limi katta hamshirasi.

26-IYUN – XALQARO GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH KUNI

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI

Giyohvandlikka "asr vabosi" deya ta'rif beramiz. Unga qarshi nafaqat illat, balki global ofat sifatida kurashamiz. Chunki bugun ayni shu xatar insoniyat salomatligi, taqdiri va hatto kelajagiga rahna solayotgani sir emas.

Birlashgan Millatlar tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilikni nazorat qilish boshqarmasi tomonidan o'tgan yili e'lon qilingan hisobotiga ko'ra, dunyoda giyohvand moddalar iste'mol qiluvchilar soni 10 yil ichida 23 foizga o'sib, 240 milliondan 296 million nafarga yetgan.

Shuningdek, bu illat bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekuvchilar 2011-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda 45 foizga oshib, 39,5 million kishini tashkil etgan.

Bugungi kunda giyohvandlik – XXI asrning global muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va o'lat kabi ofatlar bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib o'z o'rnini giyohvandlik illatiga bo'shatib berdi, desak aslo mulohaza bo'lmaydi. Sog'lom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu ko'chaga kirib qolsa, o'zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat o'ziga, balki yaqinlariga ham to'xtovsiz azob beradi. Undan tug'ilajak farzandlar esa ota-onasining xatosi oqibatida bir umrga majruhlik qismatiga muhtalo bo'ladilar.

Ba'zan giyohvandlik qurboniga ay-

lanib qolgan insonlarning qismatini ko'rib, ularga nisbatan nafrat, qahr va rahm tuyg'ularining uyg'onishi tabiiy. Ularning quriyotgan daraxt misol umri evaziga ayrim qora niyatli yovuz kimsalarning hamyoni qappaymoqda. Odam qiyofasidagi bunday maxluqlarning qora og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jim qarab turib bo'lmaydi, albatta.

Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi kerak bo'lgan bir paytda, o'smirlarni aldov yo'li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotgan kimsalar ozmi?

Qanchadan-qancha oilalarning yostig'ini quritayotgan giyohvandlikka qarshi har bir inson o'zi kurashmog'i, tashqi ta'sirlardan himoyalanganmog'i lozim. Voyaga yetayotgan farzandlarimiz o'tmishi qadim, tuprog'i oltin, osmoni musaffo O'zbekistonning kelajak vorislaridir. Ularni mana shunday sog'lom muhitda, ezgu tushunchalarni yuraklariga joylab voyaga yetkazaylikki, hech qanaqa tashqi salbiy xurujlar va qora illatlar o'pqqoni ularni o'ziga jalb qila olmasin!



OMMAVIY YUGURISH MARAFONI O'TKAZILDI

11-may kuni "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining 80 yilligiga bag'ishlab ishchi-xodimlar va mehnat faxriylari ishtirokida yugurish marafoni o'tkazildi.

Marafon oldidan "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov



va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Elzara Veliullayevalar barcha ishtirokchilarga omad tilashdi.

Marafon ikki xil yosh toifasi – 35 yoshgacha hamda 35 yosh va undan yuqori bo'lgan erkak va ayollar, mehnat faxriylari o'rtasida tashkil

etildi. Qiziqarli bo'lib o'tgan marafonda g'olib va sovrindor bo'lgan ishchi-xodimlar kombinat rahbariyati va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan qimmatbaho esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.



x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x SUPERLIGA x

GOLLARGA BOY O'YIN

Mamlakatning amaldagi chempioni "Paxtakor"ga qarshi 7-may kuni bo'lib o'tgan uchrashuvda "Metallurg" maydonni bosh eggan holda tark etdi. Jamoa raqib darvozasiga uchta to'p kiritib ham mag'lubiyatga uchradi – 4:3.

Bu yilgi mavsumni bir tekis o'tkaza olmayotgan "sherlar"ga qarshi o'yinga bekobodliklar jiddiy tayyorgarlik ko'rishgandi. Ammo mashg'ulot boshqa, o'yin tamomila o'zgacha kechishini kechagi uchrashuv ko'rsatib berdi. Tajribali himoyachilarga ega bo'la turib "Metallurg" mezonlarning yosh, serg'ayrat, iste'dodli o'yinchilaridan ikkita tezkor gol o'tkazib yubordi. Bu esa bekobodliklarni ruhan sindirdi.

Albatta Vesko Steshevich tarkibida juz'iy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Futbolchilarni ruhan yana jangga qaytara oldi. "Paxtakor" darvozasiga uchta gol kiritishga muvaffaq bo'ldik. Biroq, shu kuni himoyada juda ko'p xatolarga yo'l qo'yildi. Juda jo'n, oddiy vaziyatlardagi nuqsonlar bois butun o'yin davomida ta'qibchi rolida bo'ldik. Yakunda ijobiy natijaga erishishga kuchimiz hamda vaqtimiz yetmay qoldi.

To'g'ri, hisob 3:2 bo'lib turgan bir paytda vaziyatni o'nglash imkoniyati tug'ildi. Qarshi hujumda Abror Toshqo'ziyev darvozabon bilan yakka yakka chiqib bordi. O'zi darvozaga zarba berish o'rniga to'pni yanada qulayroq vaziyatda turgan sherigini qidirdi. Daler Sharipov raqib darvozasini ishg'ol etib, hisobni 3:3 ko'rinishiga keltirgandi. Biroq u ofsaydda qolgani ma'lum bo'ldi. "Paxtakor"dan tajribali Dragan Cheran 84-daqiqada gol urib hisobni 4:2 holatiga keltirdi. Jamoamizdan Daler Sharipov tomonidan kiritilgan to'p uchrashuvdagi oxirgisi bo'ldi.



VAZIYATLAR KO'P YARATILDI, BIROQ...

So'nggi yillarda anchagina qulay raqibga aylangan "Qizilqum"ga qarshi uchrashuvda "Metallurg" qimmatli ikki ochkodan mahrum bo'ldi. 11-mayda bo'lib o'tgan 7-turda raqib darvozasi yonida o'nlab vaziyatlar yaratgan bekobodliklar bu uchrashuvda maydonni golsiz tark etdi va durang bilan kifoyalandi. Musobaqa jadvalining quyi pog'onasiga "joylashib olgan" "Metallurg" uchun har bitta o'yin

hayot mamot jangiga aylanayapti. "Gollar otishmasida" paxtakorchilarga imkoniyat boy berilgach, "Qizilqum"ga qarshi bahsda Vesko Steshevich tarkibida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi. Qolaversa klub rahbariyati "sherlar" bilan o'yindan keyin futbolchilar hamda murabbiylar shtabi bilan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazib, jamoa natijalari muxlislarni xavotirga solayotganligi borasida jiddiy gaplashib olingandi.

"Qizilqum" bilan o'yinda himoya chizig'ida jiddiy xatolar kuzatilmadi. Biroq oldingi chiziqda yaratilgan o'nlab vaziyatlar ko'kka sovurildi. Shahzodbek Ubaydullayev 11 metrlik belgidan jarima zarbasini amalga oshirolmadi. Daler Sharipov esa raqib darvozaboni bilan yakka yakka qolgan to'rtta gollik vaziyatni barbod etdi. Shuningdek, Marko Milichkovich, Shahzodbek G'ofurbekov, Abror Toshqo'ziyev, Iskandar Shayqulovlar ham orziqib kutilayotgan jamoa g'alabasini ta'minlashi mumkin bo'lgan imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq shu kuni omad "Metallurg" hujumchilaridan ochiqchasiga yuz o'girdi.



G'ALABAGA LOYIQ O'YIN BO'LDI, AMMO...

Chempionat peshqadamlaridan biri – "Andijon"ga qarshi 8-turda 18-may kuni o'tkazilgan safar uchrashuvi oson bo'lmadi. Buning ustida 19 mingdan ziyod futbol ishqibozlari qarshisida o'ynash ikki hissa bosim bag'ishladi.

Butun o'yin davomida gollik vaziyatlarni yaratish borasida "Metallurg" yaqqol ustunlikka ega bo'ldi. Bekobodliklar birinchi taymning o'zidayoq hisobni ochishlari mumkin edi. 7-daqiqada Daler Sharipov ta'qibchisini ortda qoldirib darvoza tomon kuchli zarba berdi. Tajribali Igor Litovka jamoasini goldan qutqarib qoldi. Ikkinchi taymda ham o'yin ssenariysi o'zgarmadi. Hududiy tashabbusni mezonlar qo'lga olishdi, ammo gollik kombinatsiyalarni mehmonlar yaratishdi. Taym boshida Shahzodbek Ubaydullayevning qulay vaziyatdan yo'llagan zarbasi biroz noaniq bo'ldi. 68-daqiqada bekobodliklar yana tezkor qarshi hujumni tashkil etishdi. Chap qanotdan reydni amalga oshirgan Shahzodbek Ubaydullayev jarima maydoni ichidagi sherigi Daler Sharipovni topa oldi va uni to'p bilan ta'minladi. Jamoamizning iqtidorli yosh hujumchisi bu vaziyatdan unumli foydalanib, hisobni ochdi – 0:1.

Ortga chekinishga yo'l qolmagan maydon egalari tarkibida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi va katta kuch bilan oldinga tashlandi. 75-daqiqada yuzaga kelgan standart vaziyat "Andijon"ni mag'lubiyatdan saqlab qoldi. Jarima maydoni ichiga uzatilgan to'pni Vladimir Bubanya boshi bilan darvoza tomon to'g'riladi. To'p darvoza to'siniga tekkan holda yerga urildi va chiziqni kesib o'tganligini VAR ma'lum qilgach, gol inobatga olindi – 1:1. Uchrashuv yakunida ham bekobodliklarda g'alaba golini kiritish imkoniyati bo'ldi. Biroq bu o'yinda ham omad raqib jamoa tomonida bo'ldi va "Metallurg"ning mavsumdagi birinchi g'alabasi keyingi turlarga kechikdi.



PESHQADAMGA IMKONIYAT BOY BERILDI

24-may kuni 9-tur doirasida "Metallurg" musobaqa jadvalida birinchi o'rinda borayotgan Namanganning "Navbahor" jamoasiga qarshi maydonga tushdi. Superliga peshqadamiga qarshi bo'lib o'tgan murosasiz uchrashuvda 1:1 hisobi qayd etildi.

"Metallurg" bu o'yindan so'ng 5 ochko to'plagan holda musobaqa jadvalida 14 ta jamoa orasida so'nggi o'rinni egallab turibdi.

Navbatdagi 10-tur o'yinlarida 30-may kuni "Metallurg" Olmaliqda OKMK jamoasi mehmoni bo'ladi.

AYOLLAR BIRINCHI LIGASI

O'tgan yili kuchlilar safini tark etgan "Metallurg – W" birinchi ligada ham muvaffaqiyatsiz ishtirok etmoqda. 5-turda jamoa "Surxon – W" bilan kuch sinashib, yana mag'lub bo'ldi. 9-may kuni o'tkazilgan bu o'yinda surxondaryoliklar 1:2 hisobida g'alabaga erishdilar.

16-may kuni "Sho'rtan – W" va "Metallurg – W" uchrashuvda (0-6) bekobodliklar mavsumdagi ikkinchi g'alabasini qo'lga kiritishdi.

"Metallurg – W" o'tkazilgan 6 turdan so'ng 2 ta g'alaba, 1 ta durang va 3 mag'lubiyat bilan musobaqa jadvalida 8 jamoa orasida 7 ochko bilan 5-o'rinda bormoqda.

IBRATLI HIKOYA

Bir serjahl, o'zini tuta olmaydigan yigit bor ekan. Otasi unga bir xalta mix beribdi. G'azabini tuta olmasa, har safar devor ustuniga bittadan mix qoqishni, g'azabini bossa har safar bittadan mixlarni sug'urib olishni tayinlabdi.

B'irinchi kun ustunga o'ntalab mix qoqildi. Kelasi hafta u o'z g'azabini bosishni o'rgana boshladi va kunma-kun ustunga qoqiladigan mixlar soni kamaya bordi. Yigit tushundi: o'z harakatini nazorat qilish, mix qoqishdan osonroq.

Bora-bora u bir marta ham o'zini yo'qotmaydigan bo'ldi. Buni otasiga aytdi. Otasi, agar o'g'li

DILDAN KETMAYDIGAN CHANDIQ



achchig'lanmasa, ustundan bitta ham mix qolmasligini aytdi.

Vaqt o'tdi va shunday kun keldiki, yigit otasiga ustunda bitta ham mix qolmaganini aytdi. Otasi o'g'lini qo'lidan tutib ustun oldiga olib keldi:

- Sen ishni yaxshi uddalading, lekin ustunda qancha teshik qolganini ko'rayapsanmi? Ustun endi hech qachon avvalgidek bo'lmaydi. Sen birovga jahl ustida yomon gapirsang, uning dilida shunday chandiqlar qoladi va sen keyin necha marta kechirim so'rasang ham, ahamiyati yo'q.

"Hikmatlar javohiri" kitobidan.

"DAFTAR
HOSHIYASIDAGI
BITIKLAR" DAN

- Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi. Yoshlik. Sog'liq. Tinchlik.

- Do'stni xo'rlash - gunoh. Umr yo'ldoshini xo'rlash - yuz hissa gunoh. Ota-onani xo'rlash - ming hissa gunoh. Go'dakni xo'rlash - cheksiz gunoh...

- Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang. Vaqt ko'pligi-yu, ish yo'qligidan qo'rqing. Odamni abgor qiladigan narsa - bekorchilik.

- Hatto bulbul ham bola ochganidan keyin sayrashni bas qilib, polaponlariga yemish tashiydi.

- Ertalab turganingda, kunduzi yurganingda, kechasi uxlaganingda hech qaering og'rimasa shuning o'zi baxt!

- Aql bilan mansabga erishish mumkin. Mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.

- Dunyoda mukammal narsa yo'q. Hatto Muhabbat deb atalmish oliy tuyg'uda ham adolatsizlik bor. Kim qattiqroq sevsa, o'sha ko'proq iztirob chekadi.

- Insonning bahosi bu dunyoda o'zi olgani bilan emas, o'zidan qolgani bilan belgilanadi.

O'tkir HOSHIMOV.

QISQA HIKOYALAR

IBLIS NIMA ISTAYDI?

Ikki bola dahshatli sharpaning asta-sekinlik bilan uzoqlashib ketayotganini kuzatib turishardi. Uning ko'zlaridagi afsun ta'sirida hali-hamon boshlari karaxt edi.

- Menga qara, u sendan nima so'radi?
- Katta pul evaziga qalbmni. Sendan-chi?
- Mendan ham shuni so'radi.
- Yur, borib, ovqatlanamiz!
- Mayli-yu, lekin bir so'm ham pulim yo'q.
- Qo'yaver, menda ular endi juda ko'p...

TUTUN

Juda ko'p tamaki chekadigan bir mehmon ketar ekan, u yoq-bu yoqqa qarayveribdi:

- Hech narsam qolib ketmadimikin?
- Qoldi, - debdi mezbon.
- Nimam?
- Tutuningiz...

Nuriddin ZIYO

HIKMATLAR SANDIG'IDAN

- Birovning axloqini bilmoqchi bo'lsang, uni g'azablangan paytida ko'r.

- Birovning rivojlanayotganini ko'rmoqchi bo'lsang, o'ziga yomonlik qilganlarga muomalasini ko'r.

- Birovning aqlini bilmoqchi bo'lsang, uning fikriga qarshi chiqadiganlar bilan muloqotini ko'r.

- Kim xatoga yo'l qo'ysa, u insondir. Kim xatoda mahkam turib olsa, u ahmoqdir.

BILIMINGIZNI SINAB
KO'RING!

Qur'onda ishora qilingan eng afzal ichimlik, taom va mevadan xabaringiz bormi?

"Po'lat quyuvchi" she'rini juda taniqli va mashhur kishi yozgan. Bu she'r qachon va kim tomonidan yozilgan?

Yer yuzida qaysi hayvon yuragi bir daqiqada atigi 9 marta uradi?

Qaysi davlat nomi o'zbek tilida "boshliq" degan ma'noni bildiradi?

Sharq Arastusi yoki "Ikkinchi muallim" nomiga kim sazovor bo'lgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* Javob: Kit va mayda chivin.

* Zebra. Jihozning nomi jalyuza.

* Hirovul - qo'shinning ilg'or qismi ortidan boruvchi bo'linma, shiqovul - qo'shinning so'l qanotini qo'riqlab turuvchi bo'linma, chapovul - to'satdan hujum qiluvchi qo'shin.

* Yassaviy hazratlari falsafalari bo'yicha eng yaxshi qasos bu - unutishdir.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

KAMCHILIGINI BILISH
USULI

Talaba ustozidan so'radi:

- Ustoz, o'zimdagi kamchilikni qanday bilsam bo'ladi?
- Sen xotiningning bir kamchiligini uning o'ziga ayt. Shunda nafaqat o'zingning, balki butun urug'-aymog'ingning kamchiligini bilib olasan.



KIM NIMADAN BIRINCHI?

Nabiralar buvasi va buvisiga maqtana ketishdi:

- Men matematikadan birinchiman.

- Men esa, adabiyotdan.

Buvi uchinchi nabirasidan so'radi:

- Sen nimadan birinchisan?

- Men qo'ng'iroq chalinganda, tashqariga chiqib ketishdan birinchiman.




RUXSAT OLDIM

Vaqt allamahal bo'lganda darvozadan kirib kelgan o'g'luga onasi debdi:

- Qayerlarda yuribsan? Soat nechi bo'ldi?! Bor, yuraver ko'chada!

Bu gapni eshitgan o'g'li shu zahoti cho'ntagidan telefonini olib, kimgadir qo'ng'iroq qilib:

- Allo, sho'ttamisila? Ruxsat oldim. Hozir chiqaman, - dermish.



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg
Minbari

MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O' zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining
Metallurglar madaniyat saroyida
joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va "Niso
nashriyot va matbaa uyi" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"
mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O' zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.